MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
OKTABR / 10-SON V-QISM



Milliy nashrlar

OAK: https://oak.uz/pages/4802

05.00.00 - Texnika fanlari
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar

Google Scholar

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

TOSHKENT

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, oktabr.

Bosh muharrir:
Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:
Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA

KORXONA RAHBARIYATI TOMONIDAN ICHKI NAZORAT TIZIMINING CHETLAB O‘TILISHI BILAN BOG‘LIQ AUDITORLIK RISKLARINI BAHOLASH 9
Botirova Rahimaxon, Sirojiddinov Ikromiddin
PA-6 ASOSLI NANOKOMPOZIT OLISH TEXNOLOGIYASI VA TAHLIL USULLARI 16
Qurbonov Mahmudjon Xusanboy o‘g‘li
QASHQADARYO VILOYATIDA TASHQI VA ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY TENDENSIYALARI 21
Xadjibekova Aziza Akbarovna
ALSI QOPLAMALI HS1300T/950Y MS MARTENSITLI PO‘LATNI FIBER LAZER BILAN KESISHDA YORDAMCHI GAZ TURI VA QOPLAMANING SHLAK HOSIL BO‘LISHIGA TA’SIRI 31
Alijonov Qobiljon, Tursunov Shovkat
OCHIQ BANK EKOTIZIMIDA RISKLARNI MIQDORIY BAHOLASH VA MONITORING QILISH MODELLARI: “ORIENT FINANS” XATB MISOLIDA 39
Abduvahobov Shohruh Xolmo‘min o‘g‘li
SILINDRIK ADSORBSION FILTRLARDA O‘ZGARUVCHAN TEZLIKLI RADIAL OQIM SHAROITIDA BIR KOMPONENTLI MODDANING KO‘CHISHI VA ADSORBSIYASINI GRANULA ICHIDAGI DIFFUZIYANI HISOBGA OLGAN HOLDA HISOBLASH TAJRIBALARI 46
Ermonova Mohinur Umidjon qizi
O‘ZBEKISTONDA SANOAT MAHSULOTLARINI MAHALLIYLASHTIRISH JARAYONLARINI CHUQURLASHTIRISH VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIGI 56
Sobitova Ra’no Solidjonovna
KOMMUNAL XO‘JALIKNI RAQAMLASHTIRISH VA “AQLLI SHAHAR” TEXNOLOGIYALARINING HUDUDIY IQTISODIY O‘SISHGA TA’SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH 60
Odamboyev Oybek Ravshanbek o‘g‘li
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ БАНКОВ И МАЛОГО БИЗНЕСА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ КРЕДИТНЫХ ПРОЦЕССОВ 66
Хаитов Хаёт
YIGIRUV JARAYONIDA HOSIL BO‘LADIGAN TOLA CHIQINDILARIDAN QAYTA FOYDALANISHNING IP SIFATIGA TA’SIRI 71
Shodmonkulov Alisher, Jalilov Dilshod
GIDROTEXNIKA INSHOOTLARINING EKSPLUATATSION ISHONCHLILIGINI OSHIRISHDA INYEKSIYA CHORA-TADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA ULARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI 77
Qahhorov O‘ktam, Kurbanova Khurshida, Kurbonov Ulug‘bek
OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI XAVFSIZLIGINI STANDARTLASHTIRISH VA NAZORAT QILISHDA XITOY TAJRIBASI HAMDA UNI O‘ZBEKISTON AMALIYOTIGA MOSLASHTIRISH YO‘NALISHLARI 86
Muminov Najmiddin, Bakiyev Elyorbek
O‘ZBEKISTON HUDUDLARIDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNING HOZIRGI HOLATI VA TENDENSIYALARI 93
Jurayev Ismatulla Izzatullayevich
DESIGNING A REPRODUCIBLE FRAMEWORK FOR RESPONSIBLE AI-ENABLED HUMAN RESOURCE ANALYTICS IN HIGHER EDUCATION: A METHODOLOGICAL STUDY IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN 102
Narmuradova Sitora Aktamovna
YASHASH VA OVQATLANISH XIZMATLARINI KO‘RSATUVCHI KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING XORIJIY TAJRIBASI 108
Ganiyev Firdavs Abduraufovich

ANALYSIS OF THE POSITIVE AND NEGATIVE ASPECTS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN IMPROVING THE ECONOMIC EFFICIENCY OF ENTERPRISES 113
Shakirova Farogat Boltayevna
KORXONALARDA LOGISTIK KONSENTRATSIYA VA TAQSIMOT TIZIMLARINI INTEGRATSIYALASH STRATEGIYALARI 119
Bazorboyeva Farangiz, Xudiyarova Shahzoda, Narzullayev Shodiyor
TEMIR YO‘L KORXONALARIDA MOLIYAVIY HISOBNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TASHKIL QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 125
Misirov Xurshid Mamasobirovich

TEMIR YO‘L KORXONALARIDA MOLIYAVIY HISOBNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TASHKIL QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Misirov Xurshid Mamasobirovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Moliyaviy tahlil va audit” kafedrasi mustaqil izlanuvchisi
E-mail: misirovxurshid44@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada temir yo‘l korxonalarida moliyaviy hisobni tashkil etish, hisob siyosatini shakllantirish, xo‘jalik operatsiyalarini hujjatlashtirish hamda moliyaviy hisobotlarda aks ettirish tartibi moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosida yoritilgan. Shuningdek, hisob siyosati va hisob baholaridagi o‘zgarishlarni aks ettirish, o‘tgan davrlar xatolarini tuzatish hamda retrospektiv va perspektiv usullarni qo‘llash masalalari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: temir yo‘l korxonalari, moliyaviy hisob, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, moliyaviy hisobot, hisob siyosatidagi o‘zgarishlar, hisob baholaridagi o‘zgarishlar, o‘tgan davrlar xatolarini tuzatish, retrospektiv usul, perspektiv usul.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы организации финансового учёта на предприятиях железнодорожного транспорта, формирования учётной политики, документального оформления хозяйственных операций и порядка их отражения в финансовой отчётности на основе Международных стандартов финансовой отчётности (МСФО). Также раскрываются вопросы отражения изменений учётной политики и бухгалтерских оценок, исправления ошибок прошлых периодов, а также применения ретроспективного и перспективного методов.

Ключевые слова: предприятия железнодорожного транспорта, финансовый учёт, международные стандарты финансовой отчётности, финансовая отчётность, изменения учётной политики, изменения бухгалтерских оценок, исправление ошибок прошлых периодов, ретроспективный метод, перспективный метод.

Abstract. The article examines the organisation of financial accounting in railway enterprises, the development of accounting policies, the documentation of business transactions, and the procedures for their recognition and presentation in financial statements in accordance with International Financial Reporting Standards (IFRS). It also addresses changes in accounting policies and accounting estimates, the correction of prior-period errors, and the application of retrospective and prospective approaches.

Keywords: railway enterprises, financial accounting, International Financial Reporting Standards, financial statements, changes in accounting policies, changes in accounting estimates, correction of prior-period errors, retrospective method, prospective method.

KIRISH

Hozirgi sharoitda moliyaviy barqarorlik va korxonaning moliyaviy holati uning bozor iqtisodiyoti sharoitida samarali faoliyat yuritishini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkichlar hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyot jadal rivojlanayotgan hozirgi sharoitda O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy rivojlanish darajasini oshirish, savdo aylanmasini kengaytirish va transport infratuzilmasi samaradorligini yaxshilashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Shu sababli temir yo‘l korxonalarida xizmat ko‘rsatish jarayonlarini raqamlashtirish, moddiy-texnik bazani modernizatsiya qilish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadga muvofiq.

Iqtisodiy aloqalarning kengayishi va transport infratuzilmasining rivojlanishi temir yo‘l transportining mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyatini oshirishi mumkin. Qolaversa, bu iqtisodiy rivojlanish ortidan mamlakatlarning bir - biriga aloqalari tobora yaqinlashib bormoqda. Iqtisodiy aloqalarni bog‘lashda tovar xom-ashyo eksporti va importi muhim o‘rin tutadi. Xalqaro savdo aloqalarini rivojlantirishda temir yo‘l transporti, ayniqsa, katta hajmdagi yuklarni uzoq masofalarga tashishda muhim infratuzilmaviy vazifani bajaradi.

Ma’lumki bizning respublikamizda ham faoliyat yuritayotgan temir yo‘l aksiyadorlik jamiyati eng muhim sohalardan bo‘lib, bu sohani har tomonlama rivojlantirish maqsadida temir yo‘l sohasi rivojlangan xorijiy davlatlar bilan ish tajribalarini o‘rganish, yangiliklarni respublikamizda joriy etish yuzasidan hamkorlikni yanada yaxshilash lozim.

Shu sababli, respublikamiz aholiga xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish maqsadida ko‘plab ishlar olib borilmoqda.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, aholiga har tomonlama ko‘maklashish zarur deb aytib o‘tgan edi 20-avgust 2021-yildagi murojaatida [4]. Shunday ekan, temir yo‘l korxonalariga investitsiyalarni jalb qilish hamda investorlar sonini ko‘paytirish, zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy qilishni ko‘paytirish lozim.

Shuni ta’kidlash lozimki, “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ tomonidan 2026-yil 1-yanvar holatiga jamiyatda 63 ming nafardan ortiq xodim faoliyat yuritishi, temir yo‘llarning umumiy uzunligi 7 540 kilometrdan ortiqligi qayd etilgan. Shuningdek, tegishli hisobot davrida 105,7 million tonna yuk va 10,4 million nafar yo‘lovchi tashilgani ko‘rsatilgan, shundan Yuk tashish aylanmasi 27,9 mlrd.tonna-km.ni, yo‘lovchilarni tashish aylanmasi 4300,2 mln. pass-kmni. tashkil etadi, bu ko‘rsatkichlardan ko‘rinib turibdiki, temir yo‘l korxonalari mamlakat iqtisodiyotiga katta hissa qo‘shgan, lekin bu ko‘rsatkichlarni ko‘paytirish hamda temir yo‘l sohasini kelgusida iqtisodiy rivojlanishi va zamonaviylashuvi zarurligini inobatga olgan holda, sohaga kiritilayotgan investitsiyalar ulushini ko‘paytirish, qolaversa xizmat sifatini oshirish va yaxshilash davr talabi.

Bu takliflar ham o‘zidan o‘zi amalga oshmaydi. Lekin xususiy sektorga imkon bermasak, “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ xalqaro doiraga chiqish imkoniyatlarini yaxshilamas ekanmiz muammolar kuzatilishi mumkin, shu sababdan xizmat sifati ijobiy tomonga o‘zgarishi, narxlarning arzonlashuvini hamda yuk tashish va yo‘lovchi tashish, vagonlar, tez yurar poyezdlarni yanada zamonaviyligini, qulayligini oshirmasak bu sohani rivojlantira olmaymiz.

Albatta hozirgi vaqtda, har bir sohaga xorijiy investorlarni hamda kreditorlarni jalb qilish, bu o‘z navbatida bo‘lg‘usi sarmoyadorlarning ishonchini, qiziqishini oshirish maqsadida korxonalar moliyaviy hisobotning xalqaro standartlar asosida hisobotlar tuzishi qolaversa taqdim etishi lozim.

Mazkur jarayonga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4611 sonli [2] qarori qabul qilindi.

Bu tuziladigan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari shaffof, sodda hamda tushunarli tuzishni taqozo etadi.

Faoliyat turi va (yoki) aktivlari miqdori tufayli yuqori ijtimoiy va iqtisodiy ta’sirga, shuningdek, keng doiradagi manfaatdor tomonlarga ega bo‘lish kabi mezonlarga javob beradigan tadbirkorlik subyektlari Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar toifasiga kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-sentyabrdagi “Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-282-sonli qarori. [3]

Mazkur qarorda faoliyat turi va (yoki) aktivlari miqdori tufayli yuqori ijtimoiy-iqtisodiy ta’sirga ega bo‘lgan hamda keng doiradagi manfaatdor tomonlar bilan bog‘liq tadbirkorlik subyektlarini jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar toifasiga kiritish mezonlari belgilangan.

Shu jihatdan, temir yo‘l korxonalarida moliyaviy hisobni xalqaro standartlar asosida tashkil etish daromad va xarajatlarni iqtisodiy mazmuniga muvofiq tan olish, asosiy vositalar va majburiyatlarni ishonchli baholash, moliyaviy natijalarni haqqoniy shakllantirish hamda hisobot axborotlarining shaffofligi va taqqoslanuvchanligini ta’minlashni taqozo etadi.

Shundan kelib chiqqan holda temir yo‘l korxonalari moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tuzish va taqdim etishi muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili, moliyaviy hisobni xalqaro standartlar asosida tashkil etish bo‘yicha xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar o‘z fikrlarini berib o‘tganlar.

Xorijiy iqtisodchi olim T. Sutton moliyaviy hisob – bu moliyaviy xulosalar chiqarish, tashkilotning buxgalteriya hisobi tizimidan olingan ma’lumotlar va uni tashkilotdan tashqarida bo‘lgan foydalanuvchilar manfaati uchun yillik (yoki tez-tez) hisobotlar shaklida nashr etish jarayonidir[4] deb ta’riflagan.

Xorijiy iqtisodchi olimlar fikricha Kieso D.E., Weygandt J.J., Warfield T.D. moliyaviy hisob -tashqi va ichki tomonlar foydalanishi uchun yaxlit holda korxonaning moliyaviy hisobotlarini tayyorlash bilan yakunlanadigan jarayondir [5].

Iqtisodchi olimlar Needles B.E., Anderson H.R., Caldwell J.C moliyaviy hisob - bu tashkilot ichidagi menejerlar

tomonidan qo‘llaniladigan ma’lumotlarga qo‘shimcha ravishda, tashkilotdan tashqaridagi foydalanuvchilarga taqdim etiladigan buxgalteriya ma’lumotlarini anglatadi hamda qaror qabul qilish uchun foydali bo‘lgan ma’lumotlarni qayta ishlaydigan va taqdim etuvchi axborot tizimidir [6] degan fikrni bildirganlar.

Iqtisodchi olimlar Arnold J., Hope T., Southworth A., Kirkham L. moliyaviy hisob –bu menejerlarning harakatlarini baholash va kelajakni bashorat qilish uchun qaror qabul qiladigan ma’lumot to‘plamidir[7] degan fikr berib o‘tganlar.

Xorijiy iqtisodchi olimlar V. G. Getman. Terexova V. A., Shneydman L. Z. moliyaviy hisobga quyidagi ta’rifini berganlar - bu tashqi foydalanuvchilar uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni olish uchun amalga oshiriladigan buxgalteriya hisobidagi ma’lumotlar. U qat’iy tartibga solinadi va belgilangan tartiblarga bo‘ysunadigan, buxgalteriya hisobi qoidalari (standartlari)ga muvofiq tuzilgan hujjatdir [8] deb fikr bildirganlar.

Taniqli iqtisodchi va buxgalter N.P. Kondrakov “Moliyaviy hisob - bu nafaqat ichki boshqaruv uchun foydalaniladigan, balki kontragentlarga, ya’ni uchinchi tomon foydalanuvchilariga ham xabar qilinadigan ma’lumotlarni qamrab oladi”, [9] deb hisoblaydi.

A.X. Pardayev, A.Z. Pardayevalar moliyaviy hisobga quyidagicha ta’rif bergan. Moliyaviy hisob - bu tashqi foydalanuvchilarni moliyaviy hisobot ma’lumotlari bilan ta’minlashdir. [10]

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, biz tomondan berilgan fikrga ko‘ra, moliyaviy hisobga quyidagicha ta’rif berildi.

Moliyaviy hisob - bu manfaatdor foydalanuvchilarning keng doirasiga taqdim etiladigan ma’lumotlar bo‘lib, bu ma’lumotlardan foydalangan holda moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va korxona faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash hamda ro‘yxatga olish jarayonidir.

E’tibor bering, moliyaviy buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni aniqlashda an’anaviy ravishda quyidagilar ajralib turadigan xususiyatlardir:

- moliyaviy hisob ikki tomonlama yozuvga asoslanadi;
- moliyaviy buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tartibga solinishi mumkin (ba’zi mamlakatlarda ular milliy qonunlar tomonidan tartibga solinadi. Masalan AQSHda professional tashkilotlar tomonidan, Germaniyada qonun hujjatlari bilan ishlab chiqilgan standartlar);
- moliyaviy hisobot davriy ravishda tuziladi, asosiy muddat bir yil;
- moliyaviy hisob pul shaklida yuritiladi va asosiy moliyaviy hisobotlar pul shaklida tuzilgan;
- moliyaviy hisob va moliyaviy hisobot obyekti korxona hisoblanadi (shuning uchun e’tibor bering, umumiy nazorat munosabatlari bilan o‘zaro bog‘langan korxonalar guruhi mavjud bo‘lsa, konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot tuziladi).

“Buxgalteriya hisobi” tushunchasining rus amaliyotida ta’kidlanishicha, an’anaviy ravishda buxgalteriya hisobiga kiritilgan mahsulot tannarxini hisoblash usullari boshqaruv hisobiga taalluqlidir. Shuni ta’kidlash kerakki, MHXS faqat belgilaydi, moliyaviy hisobotni shakllantirish qoidalari va moliyaviy hisobni yuritish tartibini belgilamaydi. Ba’zi hollarda talablar asosida standartlar bajarilishi kerak, boshqalarda muqobil variantlar mavjud. MHXSning so‘zboshida ma’lumotlar aniq ko‘rsatilgan standartlar “tan olish, baholash, muhim operatsiyalarni taqdim etish va oshkor qilish va umumiy maqsadli moliyaviy hisobotlardagi voqealar xalqaro standartlar doirasi korxonalarning moliyaviy hisobotlari (moliyaviy hisobotlari). “financial statements” va “financial reporting”, biroq, “moliyaviy hisobot” tushunchasi qo‘shimcha ko‘rib chiqishni talab qiladi, chunki u har doim ham bir ma’noli talqin etilmaydi. Ingliz tilida ikkita atama mavjud: moliyaviy hisob ma’lumotlari kompaniyaning moliyaviy holatini baholash uchun mo‘ljallangan. Ushbu ma’lumotlarning foydalanuvchilari egalari, shuningdek, tashqi foydalanuvchilar - investorlar, banklar, pudratchilardir. Shuning uchun uni ba’zan tashqi hisob deb ham atashadi.

Moliyaviy hisob aktivlar va passivlarni nazorat qilishga qaratilgan, ya’ni mulk va manbalar tadbirkorlik faoliyati natijalariga ta’sir qiluvchi bitimlarni ro‘yxatga olish va tasniflash to‘g‘risida tadbirlar. Bu hisob o‘tgan zamonlarga ishora qiladi.

Moliyaviy buxgalteriya hisobi - bu xarajatlarning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha joriy xarajatlar, korxona daromadlari, debitorlik va kreditorlik qarzlarining holati, moliyaviy qo‘yilmalar hajmi va ulardan olingan daromadlar, moliyalashtirish manbalarining holati va boshqalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar.

Moliyaviy buxgalteriya hisobi nafaqat ichki boshqaruv uchun foydalaniladigan, balki tashqi foydalanuvchilarga yetkaziladigan ma’lumotlarni ham qamrab oladi. Shu bilan birga, buxgalteriya ma’lumotlarining tashqi foydalanuvchilari aksiyadorlar va kreditorlar (joriy va potensial), yetkazib beruvchilar, xaridorlar, soliq xizmatlari va byudjetdan tashqari jamg‘armalar vakillari, korxona xodimlari bo‘lishi mumkin.

Aksiyadorlar o‘z investitsiyalarining qiymatini va aksiyalardan qancha foyda olishlarini bilishni xohlashadi. Xodimlar korxonaning ish haqini oshirish talablarini qondirish va ortiqcha mehnatdan saqlanish qobiliyati to‘g‘risida ma’lumotlarga ega bo‘lishni xohlashadi. Kreditorlar va ssuda kapitali egalari kompaniyaning moliyaviy majburiyatlarini bajarish qobiliyati to‘g‘risida ma’lumotga muhtoj.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi va soliq inspeksiyasi kabi davlat tashkilotlari ham buxgalteriya ma’lumotlarini to‘playdi va shu bilan birga e’lon qilingan foyda, hisoblangan soliqlar, investitsiyalar

hajmi, mulk va boshqalar to‘g‘risidagi batafsil ma’lumotlarga e’tibor beradi. Hammaga ma’lum balans usuli moliyaviy hisobning asosi bo‘lib, buxgalteriya hisobiga qo‘sh yozuvlar yordamida iqtisodiy faktlar va hodisalarni ro‘yxatga olish yo‘li bilan qo‘llaniladi.

Umuman olganda, moliyaviy buxgalteriya an’anaviy buxgalteriya hisobini o‘zida mujassam etgan bo‘lib, xo‘jalik boshqaruvi uchun unga xos bo‘lmagan ma’lumotlarning shakllanishidan ozod qilingan (bu bilan xo‘jalik ichidagi buxgalteriya hisobi odat tusiga kiradi).

Moliyaviy hisobning asosiy vazifasi korxonaning moliyaviy natijalarini, uning mulkiy va moliyaviy holatini hisobga olishning ishonchliligi hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada analiz va sintez, guruhlash, taqqoslash, induksiya va deduksiya, monografiya, kuzatish va boshqa usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Temir yo‘l korxonalarida moliyaviy hisobni milliy standartlardan xalqaro standartlarga o‘tkazish 2015-yildan boshlab, xalqaro standartlar asosida transformatsiya qilish orqali yo‘lga qo‘yilgan.

Bu esa moliyaviy hisobotdan tashqi foydalanuvchilar uchun nashr qilingan moliyaviy hisoblarga qiziqishni oshiradi.

Shu sababli, 2015-yildan beri temir yo‘l korxonalarida e’lon qilib kelingan moliyaviy hisobotlar birinchi transformatsiya qilingan vaqtda 3 ta davrni, undan so‘ng yil oxiri va yil boshiga 2 ta davrni hisobga olib tuzilib kelingan.

Moliyaviy hisobni tashkil qilishda eng asosiy hujjatlardan biri hisob siyosati hisoblanadi va 8-BHXS “Hisob siyosati” baholardagi o‘zgarishlar va xatolar” nomli xalqaro standartlar asosida tuziladi.

Shundan kelib chiqqan holda, hisob siyosatini xalqaro standartlar asosida tuzish ushbu korxona va uning tarkibidagi korxonalar uchun moliyaviy hisobni to‘g‘ri tashkil etish uchun asosiy hujjatlardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Temir yo‘l korxonalarida moliyaviy hisobotlar shakli xalqaro standartlarga ko‘ra quyidagi to‘plamidan iborat:


- moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot;
- foyda va zararlar hamda jami umumlashgan daromad to‘g‘risidagi hisobot;
- pul mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi hisobot;
- kapital o‘zgarishlar to‘g‘risidagi hisobot;
- hisob siyosatiga izoh va boshqa ma’lumotlarga tushuntirishlar.

Yuqoridagilardan ham ko‘rishimiz mumkinki, moliyaviy hisobot shakllariga katta e’tibor berilib, hisob siyosati bo‘yicha izohlar qismida ma’lumotlarning foydaliligini oshirish uchun har bir hisobot shakllari bo‘yicha hisobdagi tushuntirishlarni batafsil keltirilishi uning tushunarli hamda shaffofligini ta’minlashga o‘z hissasini qo‘shmoqda.

Izlanishimiz natijasida 8-BHXS “Hisob siyosati” baholardagi o‘zgarishlar hamda xatolar” standartiga asosan hisob siyosatini tuzish va unga amal qilgan holda moliyaviy hisobni yuritish imkoniyatiga erishiladi, qolaversa ko‘plab xorijiy davlatlar tanlagan MHXS bo‘yicha moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri tuzish, taqdim etish imkoniga erishamiz.

Xalqaro standartga asosan, hisob siyosatining tarkibiy qismini quyidagi 1-rasmda keltirib o‘tamiz.

Hisob siyosati bu tashkilot tomonidan moliyaviy hisobotni tayyorlashda va taqdim etishda qo‘llaniladigan muayyan tamoyillar, me’yorlar, asoslar, usullar, umumqabul qilingan shartlar va amaliy yondashuvlardan iborat.



1-rasm. Temir yo'l transporti korxonalarida moliyaviy hisobotni tuzish uchun hisob siyosatining tarkibiy tuzilishi

MHXSlarning turli xil milliy hisob tizimiga ega bo'lgan mamlakatlarda qo'llanilishi ko'zda tutilganligi sababli ular tarkibiy tuzilishi bo'yicha ham barcha uchun bir xil bo'lishi kerak. Harakatdagi xalqaro standartlar tarkibi bo'yicha uch qismdan iborat. Birinchi qism – kirish, ikkinchi qism – hisob obyektining tavsifi (ochilishi), uchinchi qism – buxgalteriya hisobi standarti (xulosasi) deb ataladi. MHXSlar o'zlarining o'ta muvofiqligi bilan ajralib turadi. Xalqaro standartlar asosida O'zbekiston Temir yo'l korxonalari hisobotlarini yuritishda eng asosiy va umumiy yo'nalishlarni belgilaydi. MHXSlarni ishlab chiqishga bunday yondashish ularning turli mamlakatlarda qo'llanilish imkoniyatini oshiradi va milliy hisob standartlarining xalqaro standartlarga muvofiqligini oshiradi. Shuni ta'kidlash lozimki, hozirgi paytda nashr qilingan MHXSlar bir-biriga bog'liqdir va birgalikda yagona tizimni tashkil etadi. Shunday qilib, bitta standartning qo'llanilishi shu uzluksiz tizimning boshqa qismlarini qo'llashni talab qiladi, ya'ni bitta standartni boshqa standartlardan ajratib olgan holda qo'llash mumkin bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasida MHXSlarga o'tishda o'ziga xos va milliy iqtisodiyotimizga mos yo'l tanlandi. Bu esa bevosita xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotni tuzish yoki milliy standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotni xalqaro standartlarga transformatsiya qilish orqali erishilishi mumkin. Birinchi yo'l xalqaro standartlar asosida to'g'ri va sifatli moliyaviy hisobot tuzishga erishishni ta'minlaydi. Ikkinchi yo'lda esa transformatsiya jarayonida ko'plab muammo va to'siqlarga duch kelish mumkin. Lekin ikkita yo'lning yechimida ham xalqaro standartlarning mazmun va mohiyatini chuqur o'rganish, uning metodologik masalalarini qo'llay olish, milliy standartlarimizni imkon qadar xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishimiz, dunyodagi rivojlangan mamlakatlar tajribalarini respublikamizdagi korxona va tashkilotlarga joriy qilishimizda MHXS standartlarini o'rganish alohida ajralib turadi.

Yuqoridagi rasmdan ko‘rib turibmizki, hisob siyosati xalqaro standartlar asosida tuzilishi moliyaviy hisobotning sodda, tushunarli va uning tashqi foydalanuvchilar uchun shaffofligini oshiradi.

Hisob siyosatidagi o‘zgarishlar retrospektiv usulda, ya’ni o‘tgan davrdagi xatolarni tuzatish orqali, buxgalteriyadagi baholar esa perspektiv, ya’ni joriy davrda hisobni davom ettirish, xatolarni tuzatish esa retrospektiv usulda amalga oshiriladi.

Shundan ko‘rishimiz mumkinki, hisob siyosatidagi xatolar o‘zgarishlari moliyaviy hisobotda uchta davrdagi moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotidagi jiddiy va muhim xatolarni ko‘rsatilishi orqali tuzatiladi.

Bu esa, o‘sha korxonalarda oldingi davrda yo‘l quyilgan xatolar mavjudligidan dalolat beradi.

Yuqoridagilarga asoslangan holda moliyaviy hisobni yuritishda hisob siyosatiga to‘g‘ri amal qilinsa, moliyaviy hisobotlarida jiddiy xatolar kamayishi hamda tushunarli bo‘lishi yanada oshadi.


“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJda moliyaviy hisobotni tuzish uchun asosiy hujjati hisob siyosati hisoblanadi va uni xalqaro standartlar asosida tuzish va tuzilgan moliyaviy hisobotlarni foydalanuvchilarga taqdim qilish maqsadga muvofiqdir.

Qolaversa, temir yo‘l korxonalarda xalqaro standartlar bo‘yicha moliyaviy hisobotlarni tuzish uchun asosiy hujjat bo‘lib, uning tarmog‘idagi korxonalar to‘g‘ridan to‘g‘ri foydalanish imkoni oshadi. MHXS standartlarini joriy qilishda O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni yangi tahriri (13.04.2016-yildagi O‘RQ-404 son). [1] qonunida “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlarni takomillashtirishda” qaroriga muvofiq, moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilish bilan birga parallel ravishda yuritish usullaridan keng foydalanilgan.

Shundan kelib chiqqan holda, hisobotdagi kamchiliklar, izohlardagi tushuntirishlar va xatolar, qolaversa buzib ko‘rsatishlarni oldini olish orqali moliyaviy hisobotning to‘g‘ri yuritilishiga yordam beradi.

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning hisob siyosatini 8-BHXS “Hisob siyosati” baholardagi o‘zgarishlar va xatolar” standart asosida tuzish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatmoqda .

Hisob siyosatining namunaviy shakli va bandlari quyidagi 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning moliyaviy hisobot tuzish uchun hisob siyosatining tegishli manbalari[1]

1 3. Muallif ishlanmasi.

Yuqoridagi 2-rasm asosida hisob siyosatini tuzish moliyaviy hisobotni tuzish va tushuntirishlar bo‘limidagi barcha jarayonlarni qamrab olishga xizmat qiladi.

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ yirik aksiyadorlik jamiyatlaridan biri bo‘lib uning tarkibida UK va boshqa bir qancha tashkilotlar bo‘lgani bois, uning hisobini yiriklashgan holda moliyaviy hisobot tuzishga asos sifatida hisob siyosatining tegishli bandlaridan foydalanishga to‘g‘ri keladi.

Bu bandlar qay holda aks ettirilishiga e’tibor bersak batafsil turkumlarga ajratilgan holda keltirib o‘tilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Temir yo‘l AJ korxonalarida moliyaviy hisobotni yuritish uchun 8-BHXS “Hisob siyosati” baholaridagi o‘zgarishlar va xatolar standart asosida tuzilgan hisob siyosatiga amal qilish orqali moliyaviy hisobotning xorijiy va bo‘lg‘usi investorlar uchun foydalanishni shaffofligini ta’minlashga xizmat qiladi.

2. Hisob siyosatidagi o‘zgarishlar asosan yangi MHXS majburiy ravishda joriy etilsa yoki amaldagi BHMSga o‘zgartirish kiritilsa yoki ixtiyoriy, ya’ni korxona moliyaviy ma’lumotlardan foydalanish sifatni oshirish maqsadga muvofiq bo‘lib, masalan asosiy vositani boshlang‘ich qiymat usuli emas, balki qayta baholangan qiymat usulidan foydalanish to‘g‘ri kelsagina amalga oshiriladi. Bu esa, moliyaviy hisobotdan tashqari foydalanuvchilar uchun yanada ishonarli ma’lumotlar olish imkonini oshirishga xizmat qiladi.

3. Hisob siyosati baholardagi o‘zgarishlar hamda o‘tgan davr xatolarini tuzatish asosida moliyaviy hisobni yuritish va ro‘y bergan o‘zgarishlarni o‘z vaqtida moliyaviy hisobot qolaversa uning ilovalarida aks ettirish maqsadga muvofiq.

4. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ hisob siyosatining tegishli bandlari sifatida “umumiy qoidalar”, moliyaviy hisobot yoritib berilgan shaklida tuzish orqali moliyaviy hisobot xalqaro standartlar asosida takomillashuviga erishiladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi O‘RQ-404-son Qonuni. https://lex.uz/docs/-2931253?otherlang=1
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4611-son qarori. – URL: https://lex.uz/docs/4746047
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-sentabrdagi “Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-282-son qarori. https://lex.uz/uz/docs/-7728924
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 20-avgust kuni mamlakat tadbirkorlari bilan o‘tkazgan ochiq muloqoti materiallari.
5. Sutton T. Corporate Financial Accounting and Reporting. – 2nd ed. – Harlow: Pearson Education Limited, 2004. – P. 2.
6. Kieso D. E., Weygandt J. J., Warfield T. D. Intermediate Accounting. – 11th ed. – New York: John Wiley & Sons, 2004. – P. 2.
7. Needles B. E., Anderson H. R., Caldwell J. C. Principles of Accounting. – 3rd ed. – Boston: Houghton Mifflin Company, 1987. – P. 10.
8. Arnold J., Hope T., Southworth A., Kirkham L. Financial Accounting. – 2nd ed. – London: Prentice Hall, 1994. – P. 10.
9. Гетьман В. Г., Терехова В. А., Шнейдман Л. З. Финансовый учет. – М.: Финансы и статистика, 2004. – 784 с.
10. Кондраков Н. П. Бухгалтерский учет. – М.: ИНФРА-М, 2008. – 717 с.
11. Pardayev A. X., Pardayeva Z. A. Boshqaruv hisobi: darslik. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019. – 556 b.
12. Tashnazarov S. N. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va ularga o‘tish zaruriyati // Iqtisod va moliya. – 2016. – № 7.
13. Международные стандарты финансовой отчетности: издание на русском языке. – М.: АСКЕРИ-АССА, 2016.
14. Международный стандарт финансовой отчетности (IAS) 1. Представление финансовой отчетности.
15. Международный стандарт финансовой отчетности (IAS) 8. Учетная политика, изменения в бухгалтерских оценках и ошибки.
16. IFRS – International Financial Reporting Standards. – URL: https://www.ifrs.com
17. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz
18. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy veb-sayti. – URL: https://imv.uz
19. Davlat xaridlari elektron tizimi. – URL: http://xarid.mf.uz
20. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ rasmiy veb-sayti. – URL: https://railway.uz/ru/

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**


+998 93 718 40 07

https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal

t.me/yait_2100